

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA BUYRUQ GAPLARIDA SO‘Z TARTIBINING JOYLASHISHI

Toshtemirova Sevinchbonu Jamshit qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E – mail: sevinchbonutoshtemirova@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida so‘z tartibi qiyosiy o‘rganilgan. Shu bilan birgalikda buyruq gaplarida so‘z tartibi o‘rganilgan va taqqoslangan.

Kalit so‘zlar: so‘z tartibi, o‘zbek tilida so‘z tartibi, ingliz tilida so‘z tartibi, gap, buyruq gaplar, farqlari, o‘xshash tomonlarini aniqlash.

POSITION OF WORD ORDER IN UZBEK AND ENGLISH COMMAND SENTENCES

Abstract: This article compares word order in Uzbek and English languages. At the same time, the order of words in command sentences was studied and compared.

Key words: word order, word order in Uzbek, word order in English, sentences, imperative sentences, identifying differences, similarities.

Tilshunoslikda so‘z tartibi stilistika va lingvopoetikaning ham tadqiqot obyektii hisoblansa-da, u, eng avvalo, sintaktik hodisadir. Sintaksis – fikr ifodalash uchun zarur bo‘lgan nutqiy tayyorgarlikning eng yuksak bosqichida so‘z tartibi sintaktik birliklar: so‘z birikmalari va gaplarni tashkil qilib, so‘zlovchi maqsadining aniq, to‘g‘ri va mantiqan izchil voqelanishini ta’minlaydi.

So‘z tartibi bu gap bo‘laklarining o‘zaro muayyan Grammatik qonun – qoidalar asosida ma’lum sintaktik mazmuniy qiymat bilan bog‘liq holda joylashuvidir. O‘zbek tili grammatikasida gapda, odatda, birinchi o‘rinni ega guruhi egallashi, undan keyin boshqa bo‘laklar kelishi, kesimning gap oxirida kelishi bilan birgalikda, bu tartibning buzilish holatlari va shu bilan bog‘liq holda kechadigan sintaktik-semantik o‘zgarishlarga ham uchraydi.

Ikkala qiz ham og‘iz ochmay jim qolishdi. (to‘g‘ri tartib)

~~~~~ — ..... —————

Olib chiq o‘sha temir sopqoningni. (o‘zgargan tartib)

————— ~~~~~ ~~~~~ =====

Yuqoridagi 1- misolda avval ega va unga tegishli bo‘laklar, keyin kesim va unga tegishli bo‘laklar joylashgan .2-misolda esa kesim gapning boshiga o‘tgan va unga tegishli bo‘laklar undan keyin joylashtirilgan. Shuning uchun ham o‘zgargan tartib deyishimiz mumkin. Agar gap quyidagi tartibda joylashganda to‘g‘ri tartib deyishimiz mumkin bo‘lar edi: *O‘sha temir sopqoningni olib chiq.*

**O‘zbek tili** so‘z tartibi:

|                                   |                                                |
|-----------------------------------|------------------------------------------------|
| Ega                               | Kesim                                          |
| Egaga tegishli bo‘lak: aniqlovchi | Kesimga tegishli bo‘laklar: to‘ldiruvchi, hol. |

Shartli ravishda quyidagicha joylashtirishimiz mumkin:

|            |            |                 |                 |              |
|------------|------------|-----------------|-----------------|--------------|
| Aniqlovchi | <b>Ega</b> | Hol\to‘diruvchi | Hol\to‘diruvchi | <b>Kesim</b> |
|------------|------------|-----------------|-----------------|--------------|

Izoh: Egadan so‘ng to‘ldiruvchi + hol yoki hol + to‘ldiruvchi holatida ham joylashishi mumkin.

Masalan: Ikkala qiz ham og‘iz ochmay jim qolishdi

**Ingliz tilida** so‘z tartibi o‘zbek tilinikidan ancha farq qiladi. Bilamizki, o‘zbek tilida kesim (fe‘l) asosan gap oxirida keladi. Ingliz tilida esa doim egadan keyin keladi.

|                                   |                 |                         |                                                                  |                                 |                                 |
|-----------------------------------|-----------------|-------------------------|------------------------------------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|
| 1-darajali bo‘laklar:             |                 |                         | 2-darajali bo‘laklar:                                            |                                 |                                 |
| Ega ( subject), Kesim (Predicate) |                 |                         | To‘diruvchi (Object), Hol (Modifire),<br>Aniqllovchi (Attribute) |                                 |                                 |
| Ega<br>(subject)                  | Kesim<br>(Verb) | To‘diruvchi<br>(Object) | Usul holi<br>(manner<br>modifire),                               | Joy holi<br>(place<br>modifire) | Vaqt holi<br>(time<br>modifire) |

Izoh: Aniqllovchining aniq o‘rni yo‘q.

Masalan: Jack checks the documents very fast at the office every morning. (*Jek har kuni ertalab ofisda hujjatlarni juda tez tekshiradi*).

Gap ma’lum fikrni ifodalab, nutqning bir qismini tashkil etadi. Til, nutq orqali kishilar o‘z fikrlari, maqsadlari, his-hayajonlarini ifodalaydi. Har bir gapda qandaydir bir maqsad, niyat yoki his-hayajoni fodalaniadi. So‘zlovchi biror narsa haqida xabar qiladi yoki o‘ziga noma’lum bo‘lgan predmet, voqea-hodisalar to‘g‘risida ma’lumot olishni istaydi, yoki turli ichki tuyg‘ularni (iltimosi, g‘azabi, shodligi va boshqalarni) ifodalaydi: Shunga ko‘ra, gaplarni to‘rt turga bo‘lish mumkin: 1) darak gaplar; 2) so‘roq gaplar; 3) buyruq gaplar; 4) undov gaplar.

Buyruq gaplar kishining xohishi, iltimosi, maslahati, buyrug‘i kabi turli niyatlarini ifodalab keladi. O‘zbek tilida buyruq gaplar turli yo‘llar, vositalar yordami bilan tuziladi:

1. Buyruq-istak maylining kesim vazifasida kelishi bilan: Oyinga ayt, tezroq chiqsin!

2. Shart maylining kesim vazifasida ishlatilishi bilan: Qani endi, bolaligimga qaytib qolsam.

3. Kerak, mumkin, darkor so‘zlarining harakat nomi bilan birikib kelishi bilan: Bu yerda o‘tirish mumkin emas. . Ko‘rinadiki, yuqoridagi har uchala misolda ham so‘zlar oatdagi ya’ni to‘g‘ri taribda joylashgan.

**Ingliz tilida** buyruq gaplardan bir yoki undan ortiq kishiga biror nima qilishini yoki qilmasligini aytganimizda foydalaniladi. *Stand up!* – O‘rningdan tur! Doim ega

sen yoki siz so‘zalari hisoblanadi va yo‘naltiriladi. Shuning uchun ham ega tashlab ketiladi, lekin ma’nosidan tushib olinadi. Masalan: *Open the door. Eshingni och.*

**Xulosa:** O‘zbek tili buyruq gaplarida so‘z tartibining joylashishi oldin narsa-buyum ya’ni 2-darajali bo‘laklar, undan keyin esa 1-darajali bo‘lsak kesim joylashadi. Ingliz tilida esa avval 1-darajali bo‘lak ya’ni kesim, undan keyin 2-darajali bo‘laklar joylashadi. Yana bir farq shundaki, ingliz tilida ega doim tushurib qoldiriladi, o‘zbek tili yozma nutqda ega mavjud bo‘ladi. O‘zbek tili og‘zaki nutqda egasiz buyruq gap hosil qilishimiz mumkin. Bu holat esa ikki tildagi o‘xshashlikka misol bo‘la oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. T.S.Yadixanovaning 1954-yil “O‘zbek tilida sodda gaplarning so‘z tartibi” mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasidi.
2. O‘zbek tili grammatikasi. 2-jild. Sintaksis. 95-96, 98-99-bet
3. Shahboz Toshpo‘latov “Step by step”. “Regbooks” nashriyoti, 2020. 6-bet.
4. Grammarway 1. 2008, 40-bet.